**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**
**RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

# 2013-2014 O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING BITIRUVCHI 9-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN ONA TILI, RUS TILI, TARIX, JISMONIY TARBIYA FANLARIDAN YAKUNIY NAZORAT IMTIHON MATERIALLARI VA METODIK TAVSIYALAR

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2014

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15–20 % hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.


*Tuzuvchilar:*

**Ona tili**
***G. Ziyodullayeva*** – RTM, filologiya fanlari bo'limi bosh metodisti

**Tarix**
***A.Zamonov*** – O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlshtiruvchi-metodik markazning bo'lim boshlig'i

**Rus tili**
***U.Yaminova*** – RTM, xorijiy tillar bo'limi bosh metodisti

**Jismoniy tarbiya**
***F. Nadjimov*** – RTM, Musiqa, san'at, mehnat ta'limi jismoniy kamolot va salomatlik bo'limi bosh metodisti



**Nashr uchun mas'ul**
***N. Sh. Turdiyev***



**Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi**



**ISBN 978-9943-03-522-5**


**© RTM, 2014**

# ONA TILI

## IX sinf bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasi bo‘yicha tavsiya

O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. 9- sinfda asosiy ko’rsatkich fikrni mantiqiy izchillikda ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ravon va to`g‘ri bayon eta olish malakasi, fikr bayon etilayotgan soha bo‘yicha o`quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnining imloviy (talaffuziy), uslubiy savodlilik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli IX sinf bitiruvchilari ona tili fanidan yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Ijodiy bayon ta’limiy bayonning murakkab turlaridan biri. Ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o‘quvchining ijodiy yondashishi jihatidan bayonning boshqa turlaridan farq qiladi. Ijodiy bayon o‘quvchilarni tanlangan matnning badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog‘liq holda yoritishga, mustaqil ijodiy fikrlashga, ona tilining boy ifoda vositalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish, yozma nutq malakalarini tarkib toptirish va savodxonlik darajasini oshirish, bu boradagi bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida yoziladi.

Ijodiy bayonda ko‘proq badiiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog‘liqlik to‘g‘risidagi mavzular yoritiladi.

O‘quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib, ijodiy bayon yozadilar:

– matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish;
– boshlab berilgan matnni o‘z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish;
– matn shaxsini o‘zgartirib ijodiy bayon yozish;
– grammatik topshiriqli ijodiy bayon yozish;

Ijodiy bayon yozish jarayonida o‘quvchilar quyidagilarga e’tibor berishlari lozim:

– matnning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi, nima haqda yozish kerakligini bilishi;
– matn mavzusiga oid ma’lumotlarni eslab qolishi;
– matn rejasini (sodda) tuzishi;
– reja asosida asosiy fikrlarni aniq, ketma-ket bayon etilishiga erishishi;
– matndagi voqea-hodisalarni atroflicha mushohada etgan holda yoritishi;
– mavzuga doir o‘z mustaqil fikr-mulohazalarini yozishga erishishi;
– jumlalarni tuzishda uslubiy ravonlikka, imlo savodxonligiga e’tibor berishi;
– ijodiy bayonning qoralama nusxasi tayyor bo‘lgach, uni qayta o‘qib chiqishi;
– tayyor bo‘lgan yozma ishni oqqa ko‘chirishi.

Bayon matnlari 6 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo‘lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosidagi topshiriq beriladi. Bir o‘quvchi 6 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo‘yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo‘yiladi. O‘qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir (lozim bo‘lsa ikki) marta o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida 3,5-bet bo‘lishi lozim.

Ijodiy bayon yozish uchun 2 astronomik soat beriladi.

Ijodiy bayon matnlari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va maktab metod birlashmasida muhokama qilinib ma`qullanadi. Ma`qullangan materiallar maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining IX sinflarida o‘quvchilarning ta’lim tayyorgarligi darajasini baholashning reyting tizimiga ko‘ra ijodiy bayon quyidagi umumlashtirilgan BKM elementlari asosida tekshiriladi va baholanadi.

**Bayonni baholash mezoni:**

| T/r | Bilim, ko‘nikma, malakalar | ball |
|---|---|---|
| 1. | Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to‘g‘ri bayon qilingan bo‘lsa; so‘z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo‘lib; mazmun va ifodada bir-ikki xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; savodxonlikda qo‘pol bo‘lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo‘lsa; uslubiy xato bo‘lmasa. | 5 |
| 2. | Matn reja asosida yoritilib, so‘z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo‘lsa; mazmun va ifodada kamchilik bo‘lib, savodxonlikda 2 imlo, 2 ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo‘lsa. | 4 |
| 3. | Mavzu to‘liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo‘lsa; aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; so‘z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. | 3 |
| 4. | Matn mazmuni ko‘p buzilgan bo‘lsa; ish rejaga mos bo‘lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo‘lsa, fikrlar bir-biriga bog‘lanmasa; so‘z boyligi sayoz bo‘lib; mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. | 2 |
| 5 | Me’yorlash «2» ball uchun belgilangan mezondan oshsa. | 1 |

## Ijodiy bayon uchun matnlardan namuna

## TILINGNI AVAYLA – OMONDIR BOSHING

O‘quv va bilimning tarjimoni tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qadr-qimmatni ham obro‘-e’tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e’tibor berilmasa, noo‘rin qo‘llansa, odam boshining yorilishi hech gap emas:

Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer nafasda…
So‘zingni tiyib yur, boshing yormasin,
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin.

Dono qardoshlarning tiliga quloq sol.

Ular – Ey til egasi, boshingni asra! – deyishgan. O‘ziga esonlik tilagan har bir odam tilidan yaroqsiz so‘zini chiqarmasin. Bilib so‘zlagan so‘z donolik sanaladi. Bilimsizning so‘zi esa o‘z boshiga yetishi mumkin.

Hech qachon ko‘p gapirma. Juda oz so‘zla. Tuman so‘z tugunini bitta so‘z bilan yozib yubor, ya’ni oz so‘zlarga ko‘proq ma’no sig‘dirish payidan bo‘lgin. Chunki:

Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malik,
Ortiq so‘z bu boshni etadi egik.

Ortiqcha aytilgan so‘z kishi ko‘ngliga malol. Ammo so‘zlamaslik ham mumkin emas. Bu holda soqov degan nomni orttirib olish mumkin. Shunga ko‘ra o‘rtacha yo‘riq tutish lozim. Yo‘riqni o‘rtacha tutgan odam qut-iqbolga erishadi:

Tilingni avayla – omondir boshing,
So‘zingni avayla – uzayar yoshing….

*(171 so‘z. Yusuf Xos Hojib)*

**Topshiriqlar:**

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Kuzatishlaringiz asosida til haqidagi o‘z fikrlaringizni qo‘shib, to‘liq bayon yozing

## ONA YURTING – OLTIN BESHIGING

Ona yurting – oltin beshiging. Xalq ona yurtni ana shunday deb ulug‘laydi. Vatanning har bir qarich yerini muqaddas bilib, uni sevishga, ardoqlashga da’vat etadi. Darhaqiqat, ona yurt — oltin beshik. Biz ana shu oltin beshikda dunyoga kelamiz, birinchi bor ilk qadam tashlaymiz, o‘sib-ulg‘ayib, voyaga yetamiz, el-yurt xizmatiga bel bog‘laymiz. Ha, ona diyorning qadriga yetish, uning kamoloti, gullab-yashnashi, osoyishtaligi uchun qayg‘urishni yoshlikdan ongimizga singdirilishida chuqur ma’no bor. Chunki, har qanday inson ona-Vatani, ota-bobolari o‘tgan muqaddas zamin bilan faxrlanib yashaydi. Bu tuyg‘u unga kuch-quvvat beradi, aql-idrok ato etadi, jasoratlarga chorlaydi, mardliklarga undaydi. Insondek yashash, mehnat qilish, hayot kechirishni ta’minlaydi.

Vatanni sevish — bu ona yurtning ravnaqi yo‘lida halol mehnat qilish, o‘zini qahramonliklarga tayyorlab borish demakdir. O‘zing yashab turgan zaminni

e’zozlash, tabiatini va nafosatini saqlash, uning go‘zalligiga go‘zallik qo‘shish, odamlarni seva bilish, a’lo o‘qish, xushxulq, xushsurat bo‘lish demakdir. Vatanni sevish, uning har bir qarich yerini muqaddas bilib qadrlash go‘daklik chog‘imizdanoq ona allasi bilan qon-qonimizga singadi...

*(153 so‘z . Malik Murodov. “Oltin sandiq ochildi” kitobidan)*

**Topshiriqlar:**

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Vatan haqida yodlagan she’rlaringiz, o‘zingiz tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ingiz (shahar) haqidagi tasavvuringiz hamda matn mazmuni asosida bayon yozing.

## SUHBAT ODOBI

To‘y, ziyofat, ma’raka yoki shularga o‘xshagan yig‘in joylarga borib, suhbatlashib o‘tirgan odamlar orasiga kirsangiz, quyida zikr qilingan suhbat odobi qoidalariga rioya qiling.

Avvalo o‘tirganlarning nafratiga sabab bo‘lmaslik uchun badaningiz va kiyimingiz ozoda, pok bo‘lsin, og‘zingizdan sarimsoq, xom piyoz hidlari kelmasin. So‘ng, suhbatdoshlar orasiga kirib salom berib, ular bilan ko‘rishing, bitta salom hammalari uchun kifoya qiladi. Sizdan yoshlari katta bo‘lgan odamlardan yuqori o‘tirmang. Ikki kishi orasiga ruxsatsiz kirib joylashmang. Sizdan yuqoriroq o‘tirgan odam tashqariga chiqib ketishni istasa, o‘rningizdan turib yo‘l bering. Mutakabbirona o‘tirishdan saqlaning. Beuzr yonboshlab, oyoqlarni uzatib o‘tirish odobsizlik sanaladi.

O‘tirganlarning suhbatiga ishtirok qilishni istasangiz, nojo‘ya harakatlardan saqlaning. Katta-kichiklarning har qaysisini hurmatlab, yoshi va martabasiga ko‘ra muomala qiling. Qovoq solib, to‘ng‘illab so‘zlamang. Muomalangiz xush, chiroyingiz ochiq, so‘zlaringiz shirin va muloyim bo‘lsin.

Suhbatda esnab, mudrab o‘tirish yarashmaydi. Gapirar ekansiz, boshqalarga so‘z bermay, o‘zingizni bilarmon ko‘rsatib, hadeb so‘zlay bermang. Bir kishi so‘zini tamom qilgandan so‘ng lozim topsangiz, suhbatdoshlarning ruxsati bilan sekinroq va muloyimlik bilan so‘z boshlang. Ortiq darajada ko‘p so‘zlab, ezmalik qilib o‘tirmang, so‘zingiz qisqa, ma’noli bo‘lsin.

*(167 so‘z. «Oz-ozdan o‘rganib dono bo‘lur» kitobidan)*

**Topshiriqlar:**

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Reja tuzing. Kuzatishlaringiz va matn mazmuni asosida III shaxs tilidan bayon yozing.

## NONDAY AZIZ

Xalqimizning ajoyib udumlari, an'analari behisob. Ammo ular orasida bir an'ana borki, u haqda har qancha so'zlasang shunchalik oz. Bu – kitob bilan bog'liq an'ana bo'lib, elimiz mutolaani sevishi, unga chanqoqligidir.

Kitob uni yaratgan xalqning bebaho ma'naviy boyligidir. U inson aql-idroki va ijodkorligining buyuk kashfiyotlaridan biridir. Kitob – hayot darsligi, barcha bilimlar asosi, dunyo voqea-hodisalari va elu elatlar hayotidan hikoya qiluvchi birdan-bir manba.

Kitob – insonning eng yaqin do'sti va maslahatgo'yi, aql qayrog'i. Kitob – xazinalar kaliti, tafakkur manbai. Kitob – nonday aziz, mo'tabar va muqaddas. Shu boisdan ham kitobni sevish, qadrlash va e'zozlash qadim-qadimlardan boshlangan.

O'zbek xalqi kitob, uning hayot darsligi, mo'jizakorligi haqida ko'plab afsonalar, naql-rivoyatlar, topishmoqlar, maqol va matallar to'qigan.

Xalq «Qat-qat qatlama, qatlamadan hatlama» deb kitobdan, hatto hatlab o'tish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Quyida keltirilgan hikmatlarda kitob bamisoli oftob yanglig' ulug'lanadi, uning qadriga yetishlik ta'kidlanadi:

Kitob – oftob.
Olim – kitob.
Kitob – aql chirog'i.
Ko'p yurgan ko'p ko'rar,
Ko'p o'qigan ko'p uqar.
Kitob bilim beradi,
Bilim baxt keltiradi.

*( 161 so'z. Malik Murodov "Oltin sandiq ochildi" kitobidan)*

### Savol va topshiriqlar:

1. Qanday kitoblar o'qigansiz?
2. Uyingizda oilaviy kichik kutubxona bormi, unda qanday kitoblar mavjud?
3. Kitobning muqaddasligi haqida o'z fikrlaringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing.

## SUV MUQADDAS NE'MAT

Suv – yerda eng ko'p tarqalgan suyuqlik hisoblanadi. U asosan sayyoramizning uch butun o'ndan ikki qismini egallagan. Dengiz va okeanlardan jamlangan. Ko'l va daryolar, Arktika va Antarktida muzlari ham suvdan iborat. Suv havoda bug' ko'rinishida ham bo'ladi. Bulut ham suv. Hatto odam tanasining deyarli 2/3 qismi ham suvdan tashkil topgan. U har bir tirik organizm hayoti uchun o'ta zarurdir.

Suvdan samaraliroq foydalanish uchun suvni boshqarish qurilmalariga ega bo'lgan suv omborlari barpo qilinadi. Suv omborlari maxsus kanallar orqali ko'llarga ulanishi mumkin. Suv omborlaridagi suv hajmi sun'iy ravishda nazorat qilinadi.

Daryolarda doim suv oqadi. Doim oqavergan suv daryo qirg‘og‘ini va tubini yuvib ketadi. Bu jarayon “eroziya” yoki “yemirilish” deyiladi.

Aysberg – bu suvda suzib yuruvchi ulkan muz bo‘lagidir. Aysberglar dengiz tubiga cho‘kmaydi, chunki muz suvdan yengil. Aysbergning faqat eng ustki qismi suv yuzida ko‘rinib turadi. Suv ostida esa uning ko‘rinib turganidan bir necha barobar katta qismi bo‘ladi.

Yer kurrasidagi umumiy suv miqdori o‘zgarmaydi. Okean, dengiz, daryo va ko‘l yuzidagi suvlar bug‘lanib, bulutlar hosil bo‘ladi. Ular esa yomg‘ir yoki qor bo‘lib yog‘ib, yana yer va okeanlarga tushadi.

Yer yuzida aholi iste’mol qiladigan toza suv miqdori borgan sari kamayib bormoqda. Odamlar sanoat ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan suvdan ko‘proq foydalanmoqdalar. Aksariyat hollarda korxonalar chiqindilari bilan suv ifloslanmoqda. Injenerlar suvni tozalashning turli usullarini topmoqdalar. Mamlakatimizda chiqindilar va oqava suvlarni suv havzalariga oqizish taqiqlangan. Har doim esingizda bo‘lsin: suvni asrang, uni isrof qilmang.

Suv ayniqsa O‘zbekiston sharoitida aziz. Chunki respublikamizda qishloq xo‘jaligi asosan sug‘oriladigan yerlardadir. Bu birinchi navbatda million gektarlab paxta maydonlari, polizlar va bog‘u rog‘lar. Suv uchun kurash – hayot uchun kurashdir.

*(248 so‘z. “Bolalar ensiklopediyasi”dan)*

**Savol va topshiriqlar:**

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. “Suv – mo‘jiza” deganda nimani tushunasiz?
3. Suvning muqaddas ne’mat ekanligi, uni e’zozlash, isrof qilmaslik haqidagi fikrlaringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing.

## OQKO‘NGILLIK

Oq ko‘ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagi yo shaxsiy hayotdagi yutuqlariga xuddi o‘z baxti, o‘z yutug‘i kabi qarab quvonadi. Agar bu quvonch zamiriga chuqurroq razm solinsa, yuksak, olijanob bir ma’no tantanasi ko‘zga chalinadi. Oq ko‘ngil odam shaxslar baxtida jamiyat baxtining in’ikosini ko‘radi!

Lekin ichiqora, baxil, ziqna odam birovning baxtini ham, yutug‘ini ham ko‘rolmaydi. Bundaylar ichiqoralik qilib: «Menda-ku yo‘q, senda nima uchun bo‘lishi kerak!» deydilar-da, baxillik qutqusining qullari bo‘lib qoladilar.

Xo‘sh, bunday yaramas qiliq, ya’ni baxillik qayerdan paydo bo‘ladi?

Albatta, baxillik qon yo jon bilan o‘tadigan fiziologik hodisa emas. Har qanday chaqaloq yaxshi fazilatni ham, yomon illatni ham keyin – yashash, o‘sish jarayonida orttiradi. Agar shunday bo‘lmasa, yomon xulq-atvorli ota-onaning bolasi har vaqt yomon, yaxshi xulq-atvorli ota-onaning bolasi har vaqt yaxshi bo‘lib o‘sishi kerak edi. Ammo hayotda, haqiqatda bunday emas. Aslida bolani chinakam inson qilib yetishtiradigan, uni yomon xulq-atvordan saqlab tarbiyalaydigan eng katta, eng

boobro‘ murabbiy – ota-ona, oila muhiti yo shu oilada ota-ona o‘rnini bosgan katta yoshli odamlardir. Bular nazorati bo‘lmasa, maktab ham, jamoat tashkilotlari ham qiyin ahvolga tushib qoladi. Shunisi ham borki, har bir ota-ona bolasining xulq-atvori, aqliy-jismoniy tomoni qanday bo‘lishidan qat’i nazar kam-ko‘stsiz o‘sishini, oilada, hayotda baxtli bo‘lishini istaydi. Shu tabiiy istak mayli bilan ba’zi oilalarda ota-onalar bolalarini kichikliklarida qo‘g‘irchoqdek yasatishadi, qo‘llarini sovuq suvga urdirmay papalashadi, erkatoy, tantiq qilib o‘stirishadi. Natijada bunday bolalar injiq, ichi tor, ziqna bo‘lib yetilishadi. Bularda boriga qanoat qilish, yo‘g‘iga ko‘nikish xislati bo‘lmaydi. Aksincha, ko‘ngillari tusagan narsani har qanday tadbir bilan, harom-xarish yo‘llar bilan bo‘lsa ham muhayyo qilish taraqqiy topadi. Agar mana shunday mayl tomiri vaqtida qirqilmasa, u bolani oxirida ma’nan mayib qiladi. Bunaqa bola ota-onasining qudratli panohidan havolanib, uyida hech kimning gapini quloqqa olmaydi, maktabda sinfdoshlarini, hatto muallimlarini ham nazariga ilmaydi, jamoada hamma o‘zini baravar tutishi kerakligini pisand qilmaydi. Bu xulq-atvor bolani katta hayot qiyinchiliklaridan, ya’ni har qanday bola katta bo‘lganida duch keladigan mehnat mashaqqatlaridan qo‘rqadigan qilib qo‘yadi.

*(320 so‘z. M.Ismoiliyning «Inson husni» kitobidan)*

**Topshiriqlar:**

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Reja tuzib, matn mazmuni va kuzatishlaringiz asosida bayon yozing.

## 9-SINF TARIX

## Tushuntirish xati

“Tarix” fanidan bitiruv imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlangan. Bunda topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo‘lib, har bir biletda uchtadan savol beriladi:

1. Biletdagi birinchi topshiriqda O‘zbekiston tarixida mavjud bo‘lgan biror-bir davlat nomi beriladi va o‘quvchi mazkur davlat haqida 5 daqiqa ichida quyida belgilangan baholash mezoni asosida javob berishi kerak bo‘ladi.

Na’muna uchun savol: Xioniylar davlati.

Birinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Davlatning mavjud bo‘lgan davrini to‘g‘ri ayta olish | 1 ball |
| 2. | Davlatga asos solgan shaxs nomini bilish (agar asoschi nomi darslikda bo‘lmasa, boshqa hukmdorlar nomini sanash lozim) | 1 ball |
| 3. | Davlat tashkil etilishidagi shart-sharoit haqida ma’lumot berish | 1 ball |
| 4. | Davlatning chegarasini zamonaviy xaritadan ko‘rsata olish | 1 ball |
| 5. | Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida ma’lumot berish | 1 ball |
| | Jami: | 5 ball |

2. Biletdagi ikkinchi topshiriq O’zbekiston davlatchiligi tarixida alohida o’rin egallagan hukmdorlar, sarkardalar yoki dunyo ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan O’rta Osiyolik allomalardan biri haqidagi savoldan iborat bo‘ladi. Masalan: Mirzo Ulug’bek.

Ikkinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Buyuk hukmdorning yoki allomaning yashagan yillarini yoki yashagan davrini ayta olish | 1 ball |
| 2. | Buyuk hukmdorning yoki allomaning hayoti haqida ma’lumot berish | 1 ball |
| 3. | Qaysi fan sohalarida ijod qilganligi yoki kimlar bilan kurashganligi haqida ma’lumot berish | 1 ball |
| 4. | Allomaning yozgan asarlarini sanab yoki buyuk hukmdorning bunyodkorlik ishlariga misollar keltira olish | 1 ball |
| 5. | O‘zbekistonda buyuk hukmdorning yoki alloma xotirasi tiklanishiga, bugungi kundagi e’tiborga oid ma’lumot berish | 1 ball |
| | Jami: | 5 ball |

3. Biletdagi uchinchi topshiriq Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan biror-bir davlat bilan xorijiy davlatning diplomatik aloqalariga oid savoldan iborat bo'ladi. Masalan: Qo'qon xonligining Xitoy bilan diplomatik aloqalari.

Uchinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Davlatlar o'rtasida aloqalar bo'lgan yillar yoki davr sanasini bilish | 1 ball |
| 2. | Diplomatik aloqalar olib borgan hukmdorlarni bilish | 1 ball |
| 3. | Davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning o'rnatilish sabablarini bilsh | 1 ball |
| 4. | Elchilik aloqalari bo'yich misollar keltirish | 1 ball |
| 5. | Davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning natijasi yoki oqibatini bilsh | 1 ball |
| | Jami: | 5 ball |

**Izoh:** har bir yo'nalish bo'yicha chiqqan ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo'lsa – 4 baho, yuqori bo'lsa – 5 baho. Masalan: 5+4+5=14:3=4,6 yaxlitlansa 5 baho, 4+4+5=13:3=4,3 yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining "O'zbekiston tarixi" sahifasiga qo'yiladi.

*Eslatma:* O'quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko'rishlari uchun 15, javob berish uchun esa 10–15 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metod birlashmasi qarori bilan qo'shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin.

Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletlari 4 ta savoldan iborat bo'ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to'rtinchi savol maktab metod birlashmasi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Savol tuzishda Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarlari, "Dunyo dinlari tarixi" darsligi, tarixning arxeologiya, etnografiya bo'limlariga oid ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

**1-билет**

1. Ahamoniylar davlati.
2. Jaloliddin Manguberdi.
3. Eftallar davlati va Xitoy o'rtasidagi savdo va diplomatik aloqalar.

**2-билет**

1. Buxoro amirligi.
2. Abu Mansur al-Moturidiy.
3. Amir Temur davlati va Ispaniya o'rtasidagi diplomatik aloqalar.

**3-билет**

1. Xorazmshohlar davlati.
2. Amir Temur.
3. Turk xoqonligi va Sosoniylar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**4-билет**

1. G‘aznaviylar davlati.
2. Bahouddin Naqshband.
3. Xorazmshohlar va Chingizxon davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**5-билет**

1. Qo‘qon xonligi.
2. Abu Nasr Farobiy.
3. Ashtarxoniylar va Boburiylar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**6-билет**

1. Xioniylar davlati.
2. Mirzo Ulug‘bek.
3. Shayboniylar va Usmonli turklar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**7-билет**

1. Toshkent bekligi.
2. Spitamen.
3. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**8-билет**

1. Kushon davlati.
2. Burhonuddin Marg‘inoniy.
3. Toshkent bekligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**9-билет**

1. Dovon davlati.
2. Abulg‘oziy Bahodirxon.
3. Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**10-билет**

1. Kidariylar davlati.
2. Mahmud az-Zamaxshariy.
3. Qoraxoniylar va G‘aznaviylar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**11-билет**

1. Tohiriylar davlati.
2. Amirlashkar Alimqul.
3. Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**12-билет**

1. Ashtarxoniylar davlati.
2. Temur Malik.
3. Temuriylar va Xitoydagi Min sulolasi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**13-билет**

1. Somoniylar davlati.
2. Abdulla Avloniy.
3. Ashtarxoniylar va Boburiylar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**14-билет**

1. Turk xoqonligi.
2. Ahmad al-Farg‘oniy.
3. Buxoro amirligi va Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**15-билет**

1. Arab xalifaligi.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy.
3. Buxoro xonligi va Eron safaviylari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**16-билет**

1. Temuriylar davlati.
2. Alisher Navoiy.
3. Dovon va Xitoy davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**17-билет**

1. Qoraxoniylar davlati.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur.
3. Amir Temur davlati va Konstantinopol o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**18-билет**

1. Shayboniylar davlati.
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy.
3. Amir Temur davlati va Fransiya o’rtasidagi diplomatik aloqalar.

**19-билет**

1. Temuriylar davlati.
2. Shayboniyxon.
3. Boburiylar va safaviylar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**20-билет**

1. Boburiylar davlati.
2. Muhammad Ismoil Somoniy.
3. Amir Temur va Usmonli turklar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar.

**21-билет**

1. Saljuqiylar davlati.
2. Abdullaxon II.
3. Turk xoqonligi va Vizantiya imperiyasi oʻrtasidagi diplomatik aloqalar.

**22-билет**

1. Eftallar davlati.
2. Jaloliddin Manguberdi.
3. Xiva qoʻngʻirotlari va Rossiya imperiyasi oʻrtasidagi diplomatik aloqalar.

**23-билет**

1. Amir Temur davlati.
2. Imom Ismoil Buxoriy.
3. Oʻrta Osiyoda arablar bosqinining oqibatlari nimadan iborat?

**24-билет**

1. Salavkiylar davlati.
2. Amir Umarxon.
3. Qoʻqon xonligi va Rossiya imperiyasi oʻrtasidagi diplomatik munosabatlar.

**25-билет**

1. Buxoro xonligi.
2. Abduxoliq Gʻijduvoniy.
3. Turk xoqonligi va Eftallar davlati oʻrtasidagi diplomatik munosabatlar.

## 9 КЛАСС

## РУССКИЙ ЯЗЫК

В 2013–2014 учебном году выпускной экзамен по русскому языку в 9 классе школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме в установленные Министерством народного образования сроки.

Экзамен нацелен на проверку общего уровня языковой и речевой компетенций учащихся, отражающих языковые знания, речевые умения и навыки, приобретённые учащимися за весь период обучения в школе общего среднего образования.

Количество билетов – 25. В каждом билете – по три задания:

1-е – на проверку умений употребления в речи синонимических форм выражения одной и той же мысли, навыков применения полученных грамматических знаний при оформлении разных типов высказываний;

2-е – на проверку умений и навыков чтения и извлечения нужной информации; определения основной мысли прочитанного текста или отрывка, краткого или подробного пересказа содержания прочитанного; (тексты заранее подбирает учитель);

3-е – на проверку навыков выразительного чтения наизусть стихотворных произведений.

За выполнение каждого задания выставляется отдельная оценка. Затем баллы суммируются и выставляется средний балл.

Запечатанные и проштампованные конверты с экзаменационными материалами вскрываются в начале экзамена в присутствии всех учеников, о чём составляется акт. На подготовку учащихся к ответам отводится 15 минут.

### Критерии оценки за выполнение первого задания

| | |
|---|---|
| «5» | Выставляется:<br>Если учащийся правильно употребил синонимичные формы выражения одной и той же мысли, при этом не допустил ни одной грамматической ошибки. |
| «4» | Если учащийся правильно употребил синонимичные формы выражения одной и той же мысли, при этом допустил 1-2 грамматические ошибки. |
| «3» | Если учащийся употребил не все изученные синонимичные формы выражения одной и той же мысли, при этом допустил более 2-х грамматических ошибок. |
| «2» | Если учащийся не сумел употребить ни одной из изученных синонимичных форм выражения одной и той же мысли. |
| «1» | Если учащийся не смог выполнить задание. |

## Критерии оценки за выполнение второго задания

| Оценка | Чтение и пересказ |
|---|---|
| «5» | Выставляется:<br>– за правильное, беглое, выразительное чтение, понимание основной и дополнительной информации текста, умение пересказать содержание текста (подробно или кратко) и оценить описываемые факты. |
| «4» | – за правильное, беглое, но недостаточно выразительное чтение, понимание основной и дополнительной информации текста, умение пересказать содержание, дать не очень развернутую оценку описываемым фактам. |
| «3» | – за отдельные ошибки в технике чтения, понимание содержания лишь фрагментов текста, умение отвечать на вопросы, за допущенные ошибки в составлении высказываний по содержанию текста. |
| «2» | – за ошибки в технике чтения, понимание отдельных предложений и словосочетаний, ошибки в составлении высказываний по содержанию текста. |
| «1» | – за ошибки в технике чтения, непонимание содержания текста, неумение составить высказывания по тексту. |

## Критерии оценки за выполнение третьего задания

| | |
|---|---|
| «5» | Выставляется:<br>– за выразительное чтение, правильное произношение и интонирование, умение передать мысли и чувства автора; |
| «4» | – за выразительное чтение, правильное интонирование, но отдельные ошибки в произношении; |
| «3» | – за недостаточно выразительное чтение с ошибками в произношении и интонирование; |
| «2» | – за большое количество произносительных ошибок, частичное знание стихотворения; |
| «1» | – за незнание текста стихотворения. |

## Примерные тексты для второго задания

### I

Чтобы начать говорить на данном языке, необходимо знать определенный минимум слов, то есть такое их количество, которое позволяет составлять самые распространенные фразы. Эти слова образуют активный словарь, точнее говоря, ту часть словарного состава языка, которая употребляется в повседневном общении.

Прежде всего, сюда относятся слова, постоянно употребляемые в речи. Активный словарь не очень велик – не более 3 000 слов и выражений. Кроме того, активный словарь предполагает правильное употребление выбранного слова. Поэтому, чтобы начать говорить на данном языке, во-первых, надо знать слова, во-вторых, грамматические правила правильного употребления этих слов.

## II
## Почему прогнозы погоды не всегда точные?

Ничто в природе Земли не влияет на жизнь человека так заметно, как погода. Точный прогноз погоды – одна из древнейших проблем человечества.

Люди в течение многих веков старались запомнить приметы, чтобы предсказывать погоду. Но эти предсказания часто были неточными.

Даже в наше время, когда прогноз погоды ведется с помощью использования метеорологических спутников, точно предсказать погоду трудно. Это происходит оттого, что атмосферные явления зависят от многих факторов и очень быстро изменяются.

Пока метеорологи изучают и обрабатывают полученную с фотоснимков информацию, атмосферные процессы могут измениться.

Но благодаря использованию новейшей аппаратуры, прогнозы становятся всё более точными. Очень точно метеорологи предсказывают тайфуны, ураганы, смерчи. Но при этом примерно один из пяти обычных прогнозов бывает неверным.

1) Почему людей всегда интересовал точный прогноз погоды?
2) Какие народные приметы прогноза погоды вы знаете?
3) Почему прогнозы погоды в наше время становятся более точными?
4) Почему, несмотря на большие научные достижения, прогнозы погоды иногда бывают неточными?
5) Интересуешься ли ты прогнозом погоды? Почему?

## III
## Олимпийские игры

Олимпийские игры зародились в Древней Греции, в городе Олимпии, и проводились раз в четыре года.

В дни праздника в Греции объявлялось священное перемирие, запрещалось вести войны, то есть с древности спорт – это здоровье, дружба и отсутствие войн.

Программа Олимпиады включала в себя торжественное шествие её участников, спортивные состязания и награждение победителей венком из ветвей оливкового дерева.

В то время зимние Олимпийские игры не проводились, в играх отсутствовали футбол, баскетбол, дзюдо, водное поло и др.

С 1896 года международные олимпийские состязания проводятся в разных странах раз в четыре года. С 1914 года их проведением руководит Международный олимпийский комитет.

Олимпийские игры имеют свою символику. Как и в Древней Греции солнечный луч зажигает огонь, который горит в течение всех Олимпийских игр. Огонь – символ дружбы и мира. Олимпийский флаг с пятью кольцами – символ пяти континентов земного шара: голубое кольцо – Европа, чёрное – Африка, жёлтое – Азия, красное – Америка, зелёное – Австралия и Океания.

**Вопросы:**

1. Где зародились Олимпийские игры?
2. Что включала в себя программа древних олимпиад и какие виды спорта в ней отсутствовали?
3. С какого года проводятся международные спортивные состязания?
4. Кто их организует?
5. Какую символику имеют Олимпийские игры?

**Билет № 1**

1. Ответьте на вопрос, употребив синонимичные формы выражения причины действия.

***Почему Азиза не пришла в школу?***

2. Прочитайте незнакомый текст. Определите основную мысль, озаглавьте его.
3. Прочитайте наизусть стихотворение А.С.Пушкина «Осень».

**Билет № 2**

1. Замените простое предложение сложным

